

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| D.T.Tursunova Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari..... | 244 |
| Z.T.Aripov Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 247 |
| N.O.Saidova Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari..... | 251 |
| M.A.Abdubannobova O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi..... | 254 |
| O.A.Ashurova Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati..... | 257 |
| B.Latipov Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli..... | 261 |
| T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi..... | 265 |
| V.T.Jo'rayev Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni..... | 269 |
| Z.M.Xursanova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari..... | 274 |
| M.A.Jalilov O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida..... | 279 |
| Z.X.Siddiqov Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar..... | 283 |
| M.G'.Zaylobidinova Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish..... | 287 |
| Г.П.Наркабилова Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику..... | 291 |
| M.Sh.Dehqonova Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari..... | 295 |
| N.Q.Olimova Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish..... | 299 |
| D.T.Rustamova Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish..... | 304 |
| Y.U.Egamberdiyeva Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish..... | 309 |
| U.Y.Axmedova Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish..... | 313 |
| M.U.Buvajonova Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi..... | 317 |
| M.A.Mamasaidova, S.Sobirova Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli..... | 321 |
| M.A.G'ofurova Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish..... | 325 |
| D.M.Gazieva Psychological and pedagogical aspects of media use in education..... | 331 |



UO'K: 371.035.3.378

**XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING
TALAFFUZI VA NUTQINI O'STIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH****ПРОИЗНОШЕНИЕ И РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ
НАРОДНОЕ УСТНОЕ ТВОРЧЕСТВО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ.****PRONUNCIATION AND SPEECH DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS
THROUGH FOLK ORAL CREATION IMPROVING THE METHODOLOGY**

Olimova Nilufar Qosimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining dasturida belgilangan muhim talablardan biri o'quvchilarning nutqini o'stirishdan iborat. Chunki o'quvchilarning nutqi qay darajada ekanligi, o'qish malakalari o'z fikr mulohazalari, tasavvur tushunchalari nutq bilan bog'liq. Shu maqsadda biz o'quvchilarni nutqini o'stirishda aynan xalq og'zaki ijodi vositasidan foydalanishni afzal deb topdik. Chunki maqol, topishmoq, ertak, tez aytish va masallar boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutqini oshiruvchi asosiy quroldir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, ko'plab yutuqlarga erishilmoqda. Aytish joizki, mazmuni va tuzilishi yangilangan o'quv darsliklari hamda ta'limiy vositalarning qayta yaratilishi o'quvchi yoshlarning bilimini oshirish bilan bir qatorda nutqiy ko'nikmalarini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, ona tili darsliklarida nazariy, badiiy, rasmiy, tasviriy, muhokama matnlarning berilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, matnning ilmiy asoslanishini anglab yetish muhimdir. "Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan qurilishi va ohangiga ko'ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq, matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismlari bo'lmaydi". Binobarin, nutq jarayonida so'zlovchining nutqi qisqa holdagi kichik matnlardan iborat bo'ladi. Atrof va turli-tuman fikrlar jamlanmasi matn mazmuniga mos bo'lmashligi mumkin.

Аннотация

Одним из важных требований, определенных в программе начального класса в учебнике по родному языку и грамоте чтения, является развитие речи учащихся. Потому что с речью связаны уровень речи учащихся, их навыки чтения, их мнения и воображение. Поэтому для совершенствования речи учащихся мы сочли предпочтительным использовать средства народного устного творчества. Пословицы, загадки, сказки, поговорки и притчи являются основными средствами совершенствования устной речи учащихся младших классов.

За последние годы в нашей стране были осуществлены фундаментальные реформы в сфере образования и достигнуты многие достижения. Следует сказать, что содержание и структура обновленных учебников, воссоздание учебных средств служат совершенствованию знаний учащихся, а также их разговорных навыков. В частности, обеспечение теоретических, художественных, формальных, описательных и дискуссионных текстов в учебниках родного языка повышает качество и эффективность образования. С этой точки зрения, прежде всего, важно понять научную основу текста. «В ходе речи предложения группируются, тематически объединяются по своему строению и тону и образуют отдельную синтаксическую единицу — сложное синтаксическое целое. Однако не все предложения в тексте являются частью сложного синтаксического целого, некоторые из них не являются его компонентами. Следовательно, речь говорящего в процессе речи состоит из коротких коротких текстов. Окружение и разные мнения могут не соответствовать содержанию текста.

Abstract

One of the important requirements defined in the program of the primary grade mother tongue and reading literacy textbook is to develop students' speech. Because the level of students' speech, their reading skills, their opinions, and their imagination are related to speech. That's why we found it preferable to use the means of folk oral creativity to improve students' speech. Proverbs, riddles, fairy tales, quick sayings and parables are the main tools for improving oral speech of elementary school students.

Fundamental reforms in the field of education have been implemented in our country in recent years and many achievements are being made. It should be said that the content and structure of the updated textbooks and the re-creation of educational tools serve to improve the knowledge of the students as well as their speaking skills. In particular, the provision of theoretical, artistic, formal, descriptive and discussion texts in native language textbooks increases the quality and effectiveness of education. From this point of view, first of all, it is important to understand the scientific basis

of the text. "In the course of speech, sentences are grouped, thematically united according to their structure and tone, and form a separate syntactic unit - a complex syntactic whole. However, not all sentences in the text are part of a complex syntactic whole, some of them are not its components. Consequently, the speech of the speaker in the process of speech consists of short short texts. Surroundings and different opinions may not correspond to the content of the text.

Kalit so'zlar: nutq, talaffuz, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalq og'zaki ijodi, og'zaki nutq, yozma nutq, bog'lanishli nutq, nutq madaniyati.

Ключевые слова: речь, произношение, учитель начальных классов, народное творчество, устная речь, письменная речь, связная речь, культура речи.

Key words: speech, pronunciation, primary school teacher, folk art, oral speech, written speech, connected speech, speech culture.

KIRISH

Respublikamizda xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish, ularni komil inson qilib tarbiyalash, ijtimoiy nutqiy madaniyatini takomillashtirish, xalq ta'limi tizimini isloh qilishga va ta'lim oluvchilarning yangicha o'qitish tizimini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qitish metodikasini sifati va ijtimoiy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishni ta'minlashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish ehtiyoji vujudga kelmoqda.

Farzandlarimizni barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi kunimizning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki jamiyat a'zolarining tarbiyasi, yaxshi axloqli, halol va pok bo'lishini orzu qilamiz, ammo shu jamiyatning kelajagi bo'lmish bolalarimiz tarbiyasi haqida qayg'urmasak, maqsadimiz, orzu-niyatlarimiz amalga oshmasdan sarobligicha qolaveradi[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tarixdan bizga ma'lumki, har bir jamiyatda hech qaysi bir tuzum va hech qaysi bir din yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beparvo bo'lgan emas. Islom tarixiga nazar solsak ham, dinimiz yoshlarga qanchalik g'amxo'rlik qilganini ko'ramiz. Musulmonlar bu vazifani, ya'ni yoshlar tarbiyasini o'zlarining asosiy ishlari deb belgilashgan. So'zimiz isboti uchun musulmonlarning Makka mushrikleri bilan bo'lib o'tgan ilk to'qnashuv «Badr» voqeasini eslash kifoya. Asir tushgan mushrikleri ozod qilish shartlaridan biri «Madinalik o'nta bolaga o'qish va yozishni yaxshi o'rgatish», deb Payg'ambarimiz (s.a.v.) belgilab qo'yidilar. Vaholangki, bu davrda musulmonlar moddiy tomondan anchagina mushkul vaziyatda edilar. Asirlarni moddiy mablag'lar evaziga ozod qilsalar ham bo'lardi. Lekin asosiy maqsad yosh avlodni bilimli, savodli qilib tarbiyalash edi[5].

«Aytishlaricha, faylasuf shoir Boborahim Mashrabni dastlabki bilimlarni olish uchun madrasaga olib borishadi. Ustozi "Alif", "Be" deb alifboni o'rgatar ekan, Mashrab "Alif"ning ma'nosini bilmasdan, "Be", demasman", degan ekan. Shu ma'noda, har bir so'zni o'qib, uqish uslubini hozirgi zamonaviy ilm-fanlarni o'qitish jarayonida ham qo'llashni tavsiya etamiz. Chunki har bir fanda faqat ungagina tegishli lug'at-istilohlar mavjud va bu o'qitish uslubi mazkur fanni ilmiy asosda o'rganish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi" fikrimiz isbotidir[6]. Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bu yangiliklardan ko'plari ommaviy maktablarda amalga oshirilmoqda, ba'zilari hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Sinov davrida, birinchidan, o'quvchiga, uning darsdagi va darsdan tashqari vaqtdagi o'quv mehnatiga, u duch kelayotgan qiyinchiliklarga, uning ko'nikma, faoliyat, malakalarini va rishojlanish qonuniyatlarini o'rganish metodikasiga ko'proq ahamiyat berilmoqda o'qituvchi mehnati haqidagi fanga o'qituvchi va o'quvchi mehnati haqidagi fanga aylantirilmoqda. Ikkinchidan, ta'lim jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish, mustaqilligini va o'quv ishlari jarayonidagi aqliy faolligini oshirish vazifalari hal qilinmoqda. Uchinchidan, mavjud ta'lim tizimidagi tekshirishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham tekshirishlar olib borilmoqda. Shunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma'lum o'rni bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Maktablarda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'qitilishi millat kelajagi bo'lmish yoshlarimizning dunyoqarashi keng, o'zini, o'zligini anglay olgan, qalbida mehr-muhabbat, ezgu tuyg'ular joy olgan haqiqiy o'zbek bo'lib kamol topishida muhim ahamiyatga egadir. Shu boisdan

PEDAGOGIKA

ham darslik yaratilish jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalari har bir sinf doirasida o'qitilishi hisobga olinadi.

Maqol - xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrabsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poyetik shaklga kelgan[7].

Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil bo'ladi. Vatan, mehnat mehr-muhabbat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, odob-axloq, til va nutq haqida, shuningdek, salbiy hislatlarni rang-barang usulda ochib berilgan. Maqolda qofiyadoshlik birinchi o'rinda turadi. Antitez hodisasi ko'p uchraydi. Majoziy ma'noga boy va ko'p ma'nolilik ustun turadi. Maqol namunalari dastlab M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan.

Topishmoq – eng qadimgi va ommaviy janr hisoblanib, jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. O'zbek xalq topishmoqlarida xalqimizning hayoti, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlarini, udumlari va urf-odatlarini ma'lum darajada ochib beradi. Topishmoqda javob yashirin bo'ladi. Narsa va hodisa biron narsaga o'xshatilib, qiyoslab taqqoslash yo'li bilan topiladi. Topishmoqlar nasriy va she'riy bo'lishi mumkin, ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo'ladi. Masalan, "Yer tagida oltin qoziq" (sabzi).

Lof – hajviy-yumoristik janr. Lofchilik, lof urish deb ham ataladi. Mubolag'aga asoslanib, kishilarda kulgi uyg'otadi, tanqidiy munosabat bildiradi. Lof askiya va qiziqchilikka yaqin turadi. Bo'rttirib muqoyasa qilish yo'li bilan aks ettiriladi. Lofda so'zda chechan bo'lishlik, hozirjavoblik, sinchkovlik va o'tkir zehn muhim hisoblanadi. Ertak, latifa, doston va og'zaki dramalarda uchraydi. O'zbek xalqining eng qadimgi xalq bayramlarida, tomosha va yig'inlarida, sayillarida so'z ustalari loflarni aytib, mohirona ijro etadilar[8].

Askiya – arabcha so'z bo'lib, o'tkir zehni, hozirjavob degan ma'noni anglatadi. O'zbek xalq ijodi turi bo'lib, ikki yoki undan ortiq kishilarning(ba'zan jamoa bo'lib) xalq sayillarida(to'y, yig'in) ma'lum bir mavzuda badiiy so'zda tortishuvdir. Bu janr o'zbek xalqi orasida judayam mashxur bo'lib, hazil-mutoyiba, kinoya, qochirim, kesatiq, o'xshatish, mubolag'a va so'z o'yiniga asoslangan. U insonni aqlini charxlaydi, fikrini to'liq bayon etishga o'rgatadi, muayyan mavzu doirasida bilimlarini kengaytiradi, savollarga ustalik bilan javob berishga o'rgatadi, insonga zavq bag'ishlab, kayfiyatini ko'taradi.

Latifa – bu arabcha so'z bo'lib, mutoyiba va hazil degan ma'nolarni anglatadi. Qisqa yumoristik, tanqidiy-hajviy janr. Qahramoni jonli, ta'sirchan, hozirjavob va hazilmutoyibaga boy. Latifa qochiriq va pichingga boy bo'ladi. Sodda va lo'nda bo'lib, ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarlarida uchraydi. Bundan tashqari Alisher Navoiyning "Xamsa" va Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarlarida ham ko'plab latifalar uchraydi. Latifaning qahramoni hamma xalqda har xil: o'zbeklarda Afandi, tojiklarda Mushfiy, turkmanlarda Mirali nomi bilan ataladi. Dastlabki o'zbek xalq latifalarini Sharif Rizo to'plab nashr ettirgan.

Qo'shiq – bu xalq og'zaki ijodi namunalari biridir. U marosim qo'shiqlari, mehnat haqidagi qo'shiqlar, laparlar, yallalar va bolalar qo'shiqlaridan iborat. Musiqa asboblari yordamida yanada o'zgacha jilo beradi. Xalqimizda qo'shiqlar ko'proq doira sadosida ijro etiladi. Buxorada mavrigiyxonlik, Toshkent va Farg'onada yalla, Xorazmda esa sho'x o'ynoqi qo'shiqlar ijro etiladi[9].

Ertak – eng qadimgi davrlardan beri sayqallanib, xalqning orzu-umidlarini va xalqlarning qahramonlarini ertak orqali ifodalab, o'quvchilarni yaxshilikka yetaklaydi[10]. Qadim zamonlarda insonlar tabiat kuchlarini oldida ojiz edilar, uni anglash va o'ziga bo'ysundirishni orzu qilganlar. Ana shunday orzu-umidlari natijasida esa ertak maydonga kelgan. Har bir ertak o'z xalqiga ega. Har bir xalq esa o'zining ertaklariga ega. Ertaklarda sehr, g'ayrioddiy holatlar, g'ayritabiiy qahramonlar va ajoyib-g'aroyib hodisalar asosiy mezon sanaladi. Ertak atamasi birinchi marotaba M.Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida uchraydi. Asarda "ertak" atamasi "etuk" atamasida qo'llaniladi. Ertak Samarqand va Surxondaryoda "matal", Buxoroda "ushuk", Toshkentda "cho'pchak" deb nomlanadi. Ertaklar:

- Hayvonlar haqidagi ertaklar;
- Bahodirlik ertaklari;
- Sehrli-fantastik ertaklar;

- Tarixiy va ijtimoiy-maishiy ertaklar kabi turlarga bo'linadi.

Ertaklar hayotot mahsuloti bo'lib, unda qahramonlar uchadi, g'oyib bo'ladi, paydo bo'ladi, sehrlil mamlakatlarda sehrlil hodisalar sodir bo'ladi. Bundan ming yillar muqaddam insonlar orzu qilgan narsalar ertaklarga ko'chgan. Natijada ayrim hayotot mahsulotlari hozirda ko'z o'ngimizda ixtiro qilinib, insonlar uchun yangiliklar olib keldi. Masalan, uchar gilamning hozirda samolyotga aylanishi. Bundan tashqari ertaklarda xalqning odil podshoh, farovon hayot va kambag'allik, boy honadon kabi keng ma'nodagi tushunchalari borki, ular xalqlarning qon-qoniga singib ketgan. Oxirida esa ertaklarni yaxshilik bilan tugashi katta-yu kichikni birdek hursand qiladi. Ertaklarning so'zlari sodda, xalqchil va umumbashariy bo'lib, o'quvchilar uchun o'qishga muammo tug'dirmaydi va o'quvchilarni so'zamollikka chorlaydi, qalbini zavq-shavqqa to'ldiradi. Fransuz yozuvchisi Perro, Rus shoiri Pushkin, nemis ertaknafislari aka-uka Grimlar, daniyalik ertakchi Andersen va o'zbek yozuvchisi Hamid Olimjonlar ertak janrida ijod qilganlar.

Doston – liro-epik janr. O'zbek xalqining xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonlar nasriy va nazmiy bo'ladi[11]. Dostonlarda xalq manfaati markazda turadi. Axloqiy va siyosiy muammolar yuqoriga chiqadi, personajlar ko'p bo'ladi, hajmi kata va drammatizm o'tkir bo'ladi. Birinchi dostonlar Yunonistonda paydo bo'lgan. Dostonning qadimgi namunalariga Firdavsiyning "Shohnoma", Gomerning "Iliada" va "Odessey", Dantening "Ilohiy komediya" asarlarini keltirib o'tmoqchimiz. Dostonlar mohiyatiga ko'ra:

- Qahramonlik;
- Sarguzasht-detektiv;
- Ishqiy-romantik;
- Jangnoma;
- Tarixiy-memuar;
- Falsafiy;
- Fantastik-allegorik kabi turlarga bo'linadi.

Xalq og'zaki ijodi fanda folklor deb ataladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms tomonidan taklif qilingan bo'lib, uning ma'nosi "Xalq donoligi" demakdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi shaxs esa folklorshunos deb ataladi.

Bizga ma'lumki, maktabda o'qish darsi zamirida "lfodali o'qish" to'garage tashkil qilinadi. lfodali o'qish to'garagi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. O'quvchilarni ifodali o'qish texnikasiga o'rgatish (to'xtam, mantiqiy urg'u qo'yish va ohang);
2. O'quvchilarni ijodiy tafakkurini o'stirish, ularni o'z ongida o'rganiladigan asardagi tabiat manzarasi, obrazlarni qayta jonlantirishga va shu hayolda jonlantirilgan tasavvurlarni og'zaki bayon etishga o'rgatish.

O'quvchilar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun 4 bosqichda ish olib boriladi:

- Tayyorlov davri;
- Tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish (tovushlar postanovkasi);
- Tovushlarning oson, ya'ni o'z-o'zidan talaffuz etiladigan bo'lishiga erishish - avtomatizatsiyasi;
- Almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farq qilish, tovushlar differensiyasi.

Tayyorlov davri har doim o'tkazilishi shart emas. Ba'zi hollarda birgina oddiy mashq bilan tovushning o'z-o'zidan talaffuz etiladigan bo'lishiga erishish mumkin. Biroq ko'pincha tovushni qo'yish uchun bir qator tayyorlov ishlarini o'tkazish zarur. Masalan, til tagidagi tugunchaning qaltiramasligidan, yoki kalta bo'lishida bola "Rr" tovushini to'g'ri talaffuz etmasa, tilning uchini tepaga ko'tara olmasa, til va tilchani bir qator artikulyatsion mashqlar yordamida o'z holiga keltirish va cho'zish mumkin. Tayyorlov davrda artikulyatsion apparatning harakatchanligi yaxshilash, nafas mashqini bajarish, taqlidchanlikni rivojlantirish va keyingi bosqichlarda qilinadigan boshqa ko'nikmalar uchun tayyorlab tarbiyalash zarur. Agar kishi talaffuzida kamchiliklar bo'lsa, eng avvalo, noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish, ya'ni tovush talaffuzini yo'lga qo'yish, uning postanovkasi ustida ish olib borish, o'rganilgan yangi tovush-harfni bo'g'inga aylantirish, so'z hosil qilish, gap tuzish, gaplardan matn tuzishga o'rgatiladi.

Umuman olganda, nutq faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va o'rgatish – tovushning avtomatizatsiyasidir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, biror insonni qaysi millat ekanligini ko'p hollarda tashqi ko'rinishidan ajrata olmaysiz. Ammo siz gaplashishga harakat qilsangiz buni farqlay olasiz. Ya'ni muloqot kunlik hayotimizda eng ko'p biz duch keladigan voqeylik. Shu boisdan insonlarga qo'yiladigan asosiy talab ham nutqiy ravonlik. O'quvchi qachon ravon gapiradi? Fikrini bemalol ayta olsa va gapirishiga sharoit yaratilsa. Agar o'quvchi gapirish jarayonida prafrazalar (tasviriy ifodalar), iboralar, maqol va hikmatli gaplar orqali fikr bildirsa, tinglovchilarning diqqatini osongina jalb qiladi, tengdoshlari orasida hurmat orttiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi// Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel. 68-son (72-98).
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 18.10.2016
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4730-sonli Qarori. <https://nrm.uz/>
 4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 19.
 5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
 6. Xudoyberganova D. O'zbek tilshunosligida matnning antroposentrik talqini "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2011/1.
 7. Jumaboyev M. "Bolalar adabiyoti va folklor". –T.,O'qituvchi, 1990.
 8. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent, "O'qituvchi", 1990.
 9. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
 10. Afzalov M., Rasulov X., Husanov Z. O'zbek xalq ertaklari. - T.: 1963.
 11. Musurmonov E. O'zbek folklori. –Samarqand 2017. 31-B
 12. Inomxo'jayev S., Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari. - Toshkent: o'qituvchi, 1978.
 13. Jumaboyev M. "Bolalar adabiyoti va folklor". –T.,O'qituvchi, 1990.
 14. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
 15. Matchonov S. va b. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. - T.: "Yangiyo'l poligraph service", Toshkent, 2020.
 16. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I. o'zbek tili. T., 1966
 17. Muminova.L. R., Qahramonova M.T. Logopediyadan terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., o'qituvchi, 1988.
 18. Musurmonov E. O'zbek folklori. –Samarqand 2017. 31-B
- Internet saytlari:
19. www.pedagog.uz
 20. www.google.uz
 21. www.phrases.org.uk/meanings/proverbs
 22. <http://www.lexuz.com>
 23. www.ziyouz.com kutubxonasi